

BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari ma'lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

36 212

108,2 % 

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

33 313

106,7 % 

Yangi tashkil etilgan korxonalar (2023- yilda)


387

100,3 

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobiylar o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnda, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar oyida, birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,0** foizga oshdi





■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik,
chovachilik, ovchilik va bu
sohalarda xizmat ko'rsatish

O'rmon xo'jaligi

Baliq xo'jaligi



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2023- yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan 2,2 foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



153



Tog'-kon sanoati va ochiq
konlarni ishlash

4 703



Ishlab chiqarish sanoati

19



Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash

107



Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra,
sanoat korxonalari va tashkilotlari soni
4 982 tani tashkil etib, o'tgan yilning
mos davriga nisbatan 2,2 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va
tashkilotlari ko'payishining asosiy omili
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan),
ishlab chiqarish (qayta ishlash)
sanoatida –1,8 % ga (jami sanoatdagi
ulushi 94,4 %), tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash – 9,3 % ga (jami
sanoatdagi ulushi 3,1 %), elektr, gaz,
bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash – 95,0 % ga (jami
sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan
ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni utilizatsiya qilishning
15,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi
2,1 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,9 foizga oshdi**



Kichik tadbirdorlik subyektlari soni




4,9
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




6,2
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,9 foizga oshdi**



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **28,1 foizga oshdi**



Xususiy korxonalar



2023- y.
2022- y.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

787



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

19



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

15



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



415

yashash bo'yicha xizmatlar



2 089

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 504 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 0,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,4 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 11,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,6 %) o'sishidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

32 464

ro'yxatdan o'tgan

29 726


faoliyat ko'rsatayotgan

384

2023- yilda yangi tashkil etilgan


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 3 820 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 213 taga yoki 5,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 384 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 67 taga yoki 2,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 440 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 taga yoki 67,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

13




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra 413 tani tashkil etib, ulardan 395 tasi yoki 95,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 43 taga yoki 12,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida viloyatimizda 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

14



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil | 2023- yil |
|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Jami | 166 | 279 | 298 | 352 | 395 |
| shu jumladan: | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 13 | 18 | 28 | 32 | 28 |
| Sanoat | 82 | 119 | 122 | 129 | 148 |
| Qurilish | 8 | 30 | 29 | 33 | 30 |
| Savdo | 30 | 59 | 65 | 89 | 114 |
| Tashish va saqlash | 2 | 6 | 5 | 6 | 11 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 13 | 21 | 22 | 25 | 26 |
| Axborot va aloqa | - | 1 | 1 | 5 | 6 |
| Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2 | 5 | 6 | 7 | 7 |
| Boshqa turlar | 16 | 20 | 20 | 26 | 25 |

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


15

| | Jami | <i>shundan:</i> | |
|-------------------------|------------|-----------------|-----------------|
| | | qo'shma korxona | xorijiy korxona |
| Viloyat bo'yicha | 395 | 209 | 187 |
| Buxoro shahar | 217 | 97 | 120 |
| Kogon shahar | 15 | 12 | 3 |
| tumanlar: | | | |
| Olot | 8 | 3 | 5 |
| Buxoro | 30 | 20 | 10 |
| Vobkent | 5 | 3 | 2 |
| G'ijduvon | 14 | 10 | 4 |
| Kogon | 31 | 21 | 10 |
| Qorako'l | 10 | 6 | 4 |
| Qorovulbozor | 7 | 4 | 3 |
| Peshku | 19 | 6 | 13 |
| Romitan | 17 | 10 | 7 |
| Jondor | 12 | 9 | 3 |
| Shofirkon | 10 | 8 | 2 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 217 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 54,9 %), Kogon tumani 31 ta (7,8 %), Peshku tumani 19 tani (4,8 %), Kogon shahar 15 ta (3,8 %), Buxoro tumani 30 ta (7,6 %), hamda Jondor tumanlarida 12 tani (3,0 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

16



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaliviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

17



2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar jami 36 212 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (27,7 %), G'ijduvon (10,8 %), Romitan (8,4 %), Buxoro (7,5 %), Jondor (6,9 %), Peshku (5,9 %), Shofirkon (5,9 %), Kogon (5,7 %), Qorako'l (5,7 %), Vobkent (5,4 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,6 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2023-yil yanvar oyida, birlikda)

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar jami 387 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlan-ganda, ularning soni Buxoro shahri (20,4 %), G'ijduvon (7,6 %), Buxoro (7,5 %), Romitan (7,2 %), Peshku (4,1 %), Kogon (5,4 %), Jondor (7,2 %), Vobkent (6,7 %), Shofirkon (4,9 %), Qorako'l (22,2 %), Olot (3,6 %), Qorovulbozor (1,6 %) tumanlari va Kogon shahar (1,6 %), ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni



(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar jami 29 726 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (28,4 %), G'ijduvon (10,6 %), Romitan (8,8 %), Buxoro (7,8 %), Jondor (7,3 %), Peshku (5,7 %), Shofirkon (5,8 %), Kogon (5,8 %), Vobkent (5,4 %), Qorako'l (5,2 %), Kogon shahar (3,9 %), Olot (3,2 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2023-yilning yanvar oyida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot ma'lumotnoma tusidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashni ta'minlaydi

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'rالayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Buxoro viloyati
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (65) 223-83-20